
FARG'ONA SHAHRIDA YOSHLAR TASHABBUSI BILAN "KONSTITUTSIYA O'ZIMIZNIKI" SHIORI OSTIDA TARG'IBOT TADBIRI O'TKAZILDI

Farg'ona shahrida viloyat yoshlari tashabbusi bilan "Konstitutsiya o'zimizniki" shiori ostida Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha targ'ibot tadbiri va kontsert-shou dasturi bo'lib o'tdi. Tadbirda oliy ta'lim muassasalari talabalari, viloyatimizning shahar va tumanlarida yashovchi yoshlar ishtirok etdilar. Albatta, tashabbus yoshlarniki, jo'shqinlik ularniki bo'ldi, lekin bu davrning mohiyatini yanada chuqurroq anglagan turli yoshdagi farg'onaliklar ham o'zlarini chetga tortishmadi.

Qizg'in munozaralarga, hayajonli lahzalarga boy bo'lgan tadbir davomida Konstitutsiyaga kiritilayotgan yangiliklar to'g'risida, shuningdek, referendum o'tkazish tartibi, unda ishtirok etish bo'yicha so'z bordi.

Bundan tashqari, tadbirda Farg'ona viloyatidagi chet tillarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati direktori Eleonara Dadajonova, "Murad Buildings" kompaniyasi asoschisi Murod Nazarov, taniqli sport ustalari so'z olib, barchani Referendum jarayonida befarq bo'lmaslikka chaqirdilar.

Tadbir xushovoz xonandalar Otabek Muhammadzohid, Jo'rabek Qodirov tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar bilan davom etdi.

2023-03-23 14:09:57